

## SPORTDA QOBILIYAT VA ISTE'DODNI O'RGANISHGA TIZIMLI YONDASHUV

**Ulug'bek Raxmonov**

*Shaxrisabz Davlat pedagogika instituti  
Jismoniy madaniyat' kafedrası o'qituvchisi*

**Annotasiya:** *Sportda qobiliyat va isdedodni o'rganish uchun umumiy sport iste'dodi tuzilishini o'rganish bo'yicha aniq vazifalar quyishimiz maqsadga muvofiqdir, Umumiy qobiliyatni mashgulot jarayonida va musobaqada qo'yiladigan zamonaviy talablarni barcha sport turlari vakillarining faoliyatini tahlil qilish asosida o'rganish mumkin.*

**Аннотация:** *Для изучения способностей и одаренности в спорте целесообразно ставить конкретные задачи по изучению структуры общеспортивной одаренности. Общую способность можно изучать на основе анализа современных требований в процессе тренировок и соревнований деятельности представителей всех видов спорта.*

**Abstract:** *To study abilities and giftedness in sports, it is advisable to set specific tasks for studying the structure of general sports giftedness. The general ability can be studied on the basis of an analysis of modern requirements in the process of training and competition of the activities of representatives of all sports.*


**Kalit so'zlar:** *sport qobiliyati musobaqalashuv faoliyati, emotsional turg'unlik, sportcha yondashuv, harakat qobiliyatlari, ijtimoiy ob'ektlar, majmuaviy yondashuv, istedod tizimi.*

**Ключевые слова:** *спортивные способности, соревновательная деятельность, эмоциональная устойчивость, спортивный подход, двигательные навыки, социальные объекты, коллективный подход, система талантов.*

**Key words:** *sports ability, competitive activity, emotional stability, sports approach, motor skills, social objects, collective approach, talent system.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi 414-sonli qarorida ta'kidlab o'tilganidek, Jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish va boshqaruv tizimini raqamlashtirish, pedagogik va ilmiy salohiyatni yanada oshirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari sifatini tubdan yaxshilash orqali yuqori natijalarga erishish ko'zda tutilgan. Maqola jismoniy tarbiya va sport sohasida ilm-fan ta'lim muammo va yechimlari, sportchilarning jismoniy tarbiya va sport faolyatida professional ta'lim olish ko'ragichlarini o'rganish, sport tashkilotlari bilan sport federatsiyalarni professional sport ta'limi bo'yicha faoliyatini chambarchas bog'lash, kerakli yakuniy natijalarni olish uchun sport sohasida ta'limning muammoli vaziyatlar va sport tashkilotlari o'rtasida turli sport ta'limi tadqiqotlarini shakllantirishdan iboratdir.

Shuning uchun Umumiy sport iste'dodi tuzilishini o'rganish bo'yicha aniq vazifalar quyishimiz maqsadga muvofiqdir, jumladan: 1. Umumiy qobiliyatni mashgulot jarayonida va musobaqada qo'yiladigan zamonaviy talablarni, barcha sport turlari vakillarining faoliyatini tahlil qilish asosida o'rganish mumkin.



### 1-rasm. Sportga xos iste'dod tizimini shakllantirish chizmasi.

2. Katta mashg'ulot yuklamalari va ulardan so'ng kuchlarning tez qayta tiklanishi yuqori malakali sportchilarga xos; bu a'lo darajadagi sog'lik va jismoniy sifatlarning

rivojlanganlik saviyasi bilan belgilanadigan mehnatsevarlik saviyasi; tana tuzilishi va salomatlik xususiyatlarini urganishning ahamiyatini ta'kidlab o'tish lozimdir.

3. Sportning ko'p turlarida, natija mashqlarni bajarish sifati bilan belgilanadi, ular harakatlarning aniqligi, mushaklar sezgirligini va boshqa shu kabi harakat kobilyatlarining yuqori saviyada rivojlanishini ta'minlaydigan xususiyatlarni talab qiladi.

4. Musobaqalashuv faoliyati asab tizimiga nisbatan emotsional turgunlikga, uz tuyg'ularini nazorat qila olish sifatlariga katta talablar qo'yadi.

5. Sportga xos iste'dod qobiliyat bilan qo'shib olib borilganda sportda yuqori natijaga erishishga yordam beruvchi harakat, jismoniy va psixologik imkoniyatlarning yigindisi sifatida qaraladi. Sport turiga qarab bu qobiliyatlarning ahamiyati o'zgarib borishi mumkin.

6. Sportga xos iste'dodni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar, uning yuqori natijalarga erishishini ta'minlovchi tizimga egaligi va tarkibiy qismlari uzaro bog'likligi va rivojlanuvchi tizim ekanligini nazarda tutishi lozim.

7. Bolalar va o'smirlarning sport tayyorgarligining boshlangich bosqichida sport iste'dodini ularning harakat va jismoniy sifatlarini pedagogik kuzatuvlar va testlar yordamida

aniqlash, somatik rivojlanishi va emotsional turg'unligini baholashni surovnomalar yordamida o'tkazish mumkin.

Sport qobiliyati va iste'dodiga bir butunlik sifatida qarash mumkin, uning o'ziga xos xususiyatlari, eng avvalo, uning tashkil qiluvchi qismlari ichki tabiatiga bogliq bo'ladi. Uni tuluq rivojlantirishni bilish, qismlarining uzaro aloqasi va o'zaro harakatini o'rganish uni bilishning asosiy omilidir. Ushbu hatti- harakat biologik va ijtimoiy ob'ektlarni o'rganishda majmuaviy yondashuvni ishlab chiqishda o'z aksini topadi. Majmuaviy o'rganish negizida yagona dastur bo'yicha ishlayotgan va umumiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro birgalikdagi muvofiqlashgan harakat turli xil mutaxassislarining faoliyatini tashkil qilishi ko'zda tutiladi. Tadqiqotlarning ob'ektini birga qushib tashkil qilishdagi bunday yondashuv sport iste'dodiga ko'plab uzaro boglangan elementlar tizimi sifatida qarashni taqozo etadi.

Sport iste'dodini ob'ekt sifatida majmuaviy o'rganish tadqiqotlarda ob'ektni nazariy jihatdan tushunish shakllaridan biri-tizimlarning umumiy nazariyasini qo'llash imkoniyatini beradi.

Biz iste'dodni o'rganishni organizm darajasida, uning qobiliyati va talantini sportda boshqacha darajada o'rganilishini inkor etmagan holda olib borishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Sportda iste'dod tizimini quyidagi chizmada tasavvur qilishimiz mumkin: organizmning bir butunligi organlar tizimi organlar va tuqimalar hujayrasi va hujayrasiz elementlar. Tizimli yondashishda barcha jarayonlar paydo bulishini buyumlarning tizim sifatida u yoki bu tuzilishga ega bulish imkoniyatini berishi lozim. Bu shuni anglatadiki, butunlikning o'ziga xos xususiyati, xossasining tuzilishi muhim ahamiyatga egadir. Bir butunlik ichki shaklining o'zaro aloqadorligi, uning tarkibiy qismini vujudga keltiradigan o'zaro harakat va o'zaro bogliqlikni o'zida mujassam qiladi. Bunday tuzilishni o'rganishda tarixiy jihatdan uning bilib olish nazarda tutiladi; ya'ni uni kelib chiqishi va rivojlanishi muhimdir. Tizim haqida axborotning olinishi uning asosida tarkibiy qismi tuzilishini tahlil qilish va uning harakat qilish usulini o'rganishga imkoniyat beradi, ya'ni u dinamik tizimlar sifatida karaladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki to'liq urganishni turli darajalarda olib boorish mumkin. Tizimni tarixiy jihatdan tahlil qilish ikkita yunalishda qaraladi, bu genetik va oldindan aytish, bunday urganishda tizim rivojlanishining kupdan kup elementlari o'rtasidagi aloqa va munosabatlar aniqlanadi, ya'ni bir butun sifatida yaxlit holat o'rganildi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, har qanday bir butun tizim o'ziga xoslikka ega, faqat oldindagidek yaxlit holat omiliga ega bulib butun jarayonga ta'sir etadi. Tuluq o'rganishning tuzilishini tahlil qilish elementlarning uzaro bog'liqligi, aloqasi va munosabatini, tizimli tashkil etishini, ierxiq tuzilishini va bir butunligini o'zida mujassamlashtiradi. Matematik uslub katta rolga ega buladi, uni qo'llash nafaqat tizimning kelib chikishini va rivojlanishini muvaffaqiyatli o'rganishga yordam beradi, balki uni oldindan aytib bera oladi, bu inson faoliyatining turli sohalarida muhim amaliy ahamiyatga egadir, shu qatori sportda ham. Sportda iste'dodning kelib chiqishi va rivojlanishi muammosini o'rganish jarayonida tizimli tahlil kilishni qullashda o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini boshqarish tizimi ochiq tizim deb yuritiladi, bu narsa organizmda bir butun va tizimning barcha tarkibiy qismlarini takomillashtirish uchun mashgulotga ta'sir etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tatqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi 414-sonli PQ Toshkent sh.,
2. Спорт машғулотнинг назарий асослари. Р. Саломов. 2005 й.
3. Ю.М.Юнусова. Основы методики физической культуры. Учебное пособие. Т. 2005 г. 207 с.
4. Умаров Д.Х. “Теория и спорта”. Учебник. Чирчик-2021 г. 220 с.
5. Селевко Г. Современные образовательные технологии. Учеб пособия. -М. 1998 год

### **INTERNET SAYTLAR:**

[www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz).

[Sport.uz](http://Sport.uz) - O‘zbekiston Respublikasi sport axborot ma’lumotlari bazasi.